

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Muassis: Farg'ona davlat universiteti.

"FarDU. Ilmiy xabarlar – Научный вестник. ФерГУ – Scientific journal of the Fergana State University" jurnali bir yilda olti marta elektron shaklda nashr etiladi.

Jurnal pedagogika, filologiya, tarix, falsafa, siyosat, kimyo, biologiya hamda geografiya fanlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnaldan maqola ko'chirib bosilganda, manba ko'rsatilishi shart.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 2-sentabrda 1109 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Muqova dizayni va original maket FarDU tahririy-nashriyot bo'limida tayyorlandi.

Tahrir hay'ati

Bosh muharrir
Mas'ul muharrir

SHERMUHAMMADOV B.SH.
AXMADALIYEV Y.I.

FARMONOV Sh. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof.	ZUOGANG PENG (Xitoy)	Janubiy-g'arbiy universitet, b.f.d., prof
ZAYNOBIDDINOV S (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	PANASYUK M (Rossiya)	Qozon federal universiteti, g.f.d, profr
A'ZAMOV A (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, f-m.f.d., prof	VALI SAVASH YYELEK (Turkiya)	Anqara Hoji Bayram Veli universiteti fil. f.d., prof
SAGDULLAYEV Sh (O'zbekiston)	O'zR FA t.f.d., prof	SIROJIDDINOV Sh (O'zbekiston)	Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU akademigi, fil.f.d., prof
TURAYEV A. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, k-b,f,d., prof	ABADI, TOTOK WAHYU (Indonesiya)	Universitas Muhammadiyah Sidoarjo, Siyosat va xalqaro huquq.
RASHIDOVA S. (O'zbekiston)	O'zRFA k.f.d., prof	SCOTT LEVI (AQSH)	Ohio State University, PhD, prof
ABDULLAEVA Z (Qirg'iziston)	OshDU k.f.n., dots	AZIYA ZHUMABAYEVA (Qozog'iston)	Abay nomidagi Qozoq milliy pedagogika universiteti
TOJIBOYEV K. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, b.f.d., prof	SANIYA NURGALIYEVA (Turkiya)	Ataturk University
G'ULOMOV S. (O'zbekiston)	O'zRFA akademigi, i.f.d, prof	SALTANAT ABILDINA (Qozog'iston)	E. A. Buketov nomidagi Qaragandi davlat universiteti
JUMABEKOVA B (Qozog'iston)	b.f.d., prof		

Tahririyat kengashi

IJTIMOIY FANLAR BO'YICHA			
XONKELDIYEVA G.	FarDU, i.f.d., prof.	SIDDIQOV I.	FarDU, f.f.d., prof
XAKIMOV N.	FarDU, f.f.d., dots.	YULDASHEV S.	FarDU, f.f.d. (DSc)
ISOMIDDINOV M.	FarDU, t.f.d., prof	G'ANIYEV B.	FarDU, f.f.d., (DSc) dots.
USMONOV B.	FarDU, t.f.d., prof	QOSIMOV A.	FarDU, f.f.d., prof.
MAXMUDOV O.	FarDU, t.f.d., dots	QAMBAROV A.A	FarDU, f.f.d., prof
QAHHOROVA M.	Xalqaro islom akademiyasi, f.f.d., prof.	ALIMOVA N.O	FarDU, t.f.b.f.d., dots
QAMBAROV A.	FarDU, f.f.d.prof.	XASANOV M.X	FarDU, t.f.b.f.d., prof
MAMATOV M.	FarDU, f.f.d., prof.	SHAMSIYEVA M.X	FarDU, t.f.b.f.d., dots
DADABAYEVA	FarDU, yu.f.f.d., dots		

Bo'lim boshlog'i: Zokirov I.I., b.f.d.,prof.

Texnik muharrirlar: Sheraliyeva J.
Mirkarimova Sh.

Musahhihlar: Mahmudov F.
O'rinboyev I.

Tahririyat manzili:

150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy.
Tel.: (0373) 244-44-57. Mobil tel.: (+99891) 670-74-60
Sayt: www.fdu.uz. Jurnal sayti: Journal.fdu.uz

Sh.Abdugʻaffor

XX asr boshlarida Fargʻona viloyatining Rossiya imperiyasi bilan iqtisodiy aloqalari 99

T.Egamberdiyeva, Sh.Oxunjonova

Taʼlimda gender yondashuvga oid xalqaro tajribalar tarixidan 105

R.A.Arslonzoda R.M.Qodirova

XX asrning 20-30 yillarida Oʻzbekiston SSR maktablarida tarix fanining oʻqitilishi masalalari 111

J.Sultonov

Chingizxonning tangut davlatini egallash yoʻlidagi oʻziga xos diplomatiyasi 116

E.K.Abdulxayev

Qatagʻon siyosati qurboni boʻlgan jadidlarning rehabilitatsiya qilinishi 122

Q.V.Yoʻlchiyev

Urush mavzusining badiiy ifodasi 126

X.P.Jurayev, N.O.Maqsumov

Mustaqillik yillarida Fargʻona viloyatida sport infrastrukturasining rivojlanishi 131

O.B.Abdunosirova

Temuriylar davrida yuqumli kasalliklar va ularning ijtimoiy-madaniy hayotga taʼsiri 134

D.J.Nizomitdinov

Amir Temurga asir tushgan nemis ritsari 138

A.R.Usmonov

Dehqonchilik anʼanalari bilan bogʻliq nomoddiy madaniyat (Fargʻona vodiysi misolida) 141

F.I.Qayumova

XX asr 20–30-yillaridagi iqtisodiy siyosat xususida ayrim mulohazalar (Fargʻona vodiysi misolida) 147

B.A.Usmonov

1470 – 1507-yillarda xurosonda Temuriylar davlatining siyosiy inqirozi va tugatilishi 153

B.A.Usmonov, R.X.Akbarov

Yangi qarashlarga boy tadqiqot 157



UO'K: 821.512.133.09-1

QATAG'ON SIYOSATI QURBONI BO'LGAN JADIDLARNING REABILITATSIYA QILINISHI

THE ARTISTIC EXPRESSION OF THEME OF WAR

ХУДОЖЕСТВЕННОГО ВЫРАЖЕНИЯ ТЕМЫ ВОЙНЫ

Yo'Ichiyev Qahhor Vahobovich 

Farg'ona davlat universiteti filologiya fanlari doktori, dotsent

Annotatsiya

Maqolada II-jahon urushi va uning salbiy oqibatlar mavzusiga oid lirik she'rlar tadqiq haqida so'z yuritiladi. Kirish qismida tahlilga tortilgan muammoning dolzarbligi, o'rgalishi zarurati asoslangan. Adabiyotlar tahlil va metodologiya qismida esa mavzu va uning asar kompozitsiyasidagi o'rni haqidagi ilmiy nazariy fikrlar qayd etilgan. Zarur ilmiy natija olingan. Asosiy qismda esa Xurshid Davron, Eshqobil Shukur lirikasidagi urush va uning salbiy oqibatlarining badiiy ifodasi tahlil qilingan.

Abstract

The article investigates lyrical poems which depict World War II together with its tragic aftermaths. The introduction examines how the problem evolved along with an evaluation of existing literature. This part of the work identifies the studied literature together with its analysis methods while discussing relevant scientific concepts which play a role in the composition. The desired scientific data has been obtained. The main section explores how war and its sickness appear within the lyrics of Khurshid Davron together with those of Eshqobil Shukur.

Аннотация

В статье рассматривается исследование лирических стихотворений на тему II мировой войны и ее негативных последствий. Во введении доказано актуальность востребованности анализируемой проблемы. В разделе «Анализ литературы и методологии» отмечены научно-теоретические взгляды на тему и на ее место в композиции лирического произведения. Получен необходимый научный результат. В основной части анализируется художественное выражение войны и ее негативные последствия в лирике Хуршида Даврона и Эшкобиля Шукра.

Kalit so'zlar: mavzu, obraz, band, kechinma, lirik qahramon, urush va uning oqibatlari.

Ключевые слова: тема, образ, строфа, переживания, лирический герой, война и ее последствие.

Key words: theme, image, chart, stanza, sentiment, lyrical hero, war, and its consequences.

KIRISH

Ma'lumki, ikkinchi jahon urushi va uning salbiy oqibatlari o'zbek she'riyatida ham doimiy ravishda o'ranib kelingan. Ayniqsa, urushga ketib, qaytmagan o'g'il, er yoki yorni kutib, ko'ngli armon bilan to'lgan, umri sog'inish, umid bilan kechayotgan ayollar tasviri alohida o'ringa ega. Urush va uning asorati yillar davomida kishilar hayotiga ta'sir qilib kelayotganini ulkan insoniy dard bilan tasvirlanadi. Ammo nima uchundir so'nggi yillarda urush mavzusi va uning salbiy jihatlariga nisbatan kamroq e'tibor qilinmoqda. Bu esa yosh avlod ongida qahramon ajdodlar, matonatli ayollar obrazi yoki urush va uning salbiy oqibatlari haqida yetarli tasavvur shaklanmasligiga olib keladi. Bu yo'l qo'yib bo'yib bo'lmaydigan holat sanaladi. Adabiyotshunoslar urushning o'zbek oilalariga salbiy ta'siri haqidagi asarlar, jumladan, she'rlarning mazmun-mohiyatini tahlil etish kerak bo'ladi. Ayniqsa, iste'dodli shoirlar Xurshid Davron, Eshqobul Shukur she'rlaridagi urush va uning salbiy ta'siri mavzuining lirik voqelik sifatidagi ifodasi, badiiy-estetik funksiyasi, lirik qahramon psixologiyasi kabi muammolarni o'rganish dolzarblik kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Aslida badiiy asar, jumladan, lirik she'r mavzusi adabiyotshunoslikda doimo tadqiq etib kelingan. Xususan, Gegel "San'at hodisaning haqiqiy mazmunini bu o'tkinchi, ahmoq dunyonga xos ko'rimlilik va aldovdan xolos etadi, unga borliqning oliy, tug'ma ruhi bilan xabar beradi", deb qayd etadi [1, 34]. Xabar aslida san'at hodisasiga aylangan asar mazmuni, mavzusi real hayot, mavjudlik mohiyatiga tengligi haqidagi fikrni ajratib ko'rsatgan. Bunda har qanday yetuk badiiy asar bizni

TARIX

tasvirlangan voqea quruq tasvir emas, balki real borliq obrazining mohiyati haqida fikr yuritishga undovchi hissiy-falsafiy mavzu ekanligi ko'rinadi.

To'g'ri bu mavzu haqidagi to'la ma'lumot emas. Aslida "ljodning birinchi natijasi asarning mavzuidir, ikkinchi natijasi asarning mundarijasidir. Ondan so'ng yozg'uchi mavzu to'g'rida yig'ilgan ma'lumotni o'z zehni bilan bir tartibga soladur. Bu esa asarning tartibi bo'ladi" [5, 14]. Abdurauf Fitratning mazkur fikrida mavzuning ijodiy faoliyatning ilk belgisi ekanligi, asar kompozitsiyasi(tartibi)ning belgilovchi vazifasini ko'rsatilgan. Adabiyotshunos fikrini davom ettirib, mavzuga yanada to'laroq ta'rif beradi: "Adabiyotning mavzui butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o'z ichki-tashqi dunyosida sezib onglaganlaridir. Bir tomchi suvdan tengizgacha. Bir uchqundan buyuk bir yong'ingacha, kichkina yaproqdan ulug' o'rmonlargacha bor esa, hammasi adib-yozuvchi uchun mavzu bo'larlik narsalardir". [5, 15] Demak, mavzu muallif tomonida tashqi borqlidan olingan va asarga jalb etilgan har bir obraz, detal, tasvirda yuzaga chiqadi. Shu ma'noda H.Umirov aytgan quyidagi mulohaza aynan Fitrat fikri bilan hamohang sanaladi: "Tema muallif tajribasida bunyodga kelgan, hayotning o'zi ko'rsatib bergan, ammo hozirgacha muallif tasavvurida ham to'la-to'kis shakllanmagan bir holda saqlanib, obrazlarda gavdalanirishni talab qilib, muallifda ishlashga mayil uyg'otgan g'oyadir". [4,112]

Lirik asar tasnifi, xususan falsafiy lirika haqida fikr yuritayotib, M.Epshteyin quyidagilarni qayd etadi "Pushkun "fikir", "iztirob", "tasodif", "taqdir" kabilarga aniqlik kiritmaydi va bir tizimga solmaydi. U diqqatini turli to'lqin, kechinma, oliy qadriyatlarga murojaat, hayot mazmuni kabilar yuza chiqadigan lirik "men"ga qaratadi" [7, 115]. Bu yerda lirik asarda mavzu lirik subyekt va uning "lirik meni" orqali yuzagachiqishiga urg'u berilgan.

Boshqa bir olim esa "Janr o'zi mavjud bo'lgan, jumladan, turli tuman hayotiy marosimlar bilan uzluksiz aloqada namoyon bo'ladi. Bu esa asar kimga mo'ljallangani, asar hajmi, uning uslubi nozikliklari, qat'iy mavzu ko'lam va kompozitsiyon qurilishi kabilarga urg'u berishni talab qiladi." [3,12]

Keltirilgan ilmiy-nazariy fikrlar mavzu haqidagi umumiy ma'lumotni beradi. Ammo bevosita urush va uning salbiy oqibati haqida yetarli tushuncha berolmaydi. Ayniqsa, oxirgi yillarda bu mavzu biroz chetda qolgandek taassurot qoldiradi. Shuning uchun mavzu, xususan, urush haqidagi badiiy mushohadani tahlil qilish zarurati mavjud.

NATIJA VA TAHLILLAR

Mavzu bo'yicha yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavzu asarning butun tuzilishini, g'oyasi, asar tilini, kompozitsiyasi, g'oyasi kabi yetakchi badiiylik muammolarini yuzaga chiqishida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun lirik asar tahlilida mavzu, xususan, urush mavzusining badiiy ifodasi orqali zamonavi boqliq, jamiyatdagi shu mavzuga oid yetakchi qarashlarni anglash mumkin. Bu esa hozir davr kishilarida urush va uning mudhish oqibatlarini doimo yodda tutish, bugungi ozod va farovon hayotimiz uchun kurashgan ajdodlar xotirasini esda saqlash, tinchlikning qadriga yetish lozimligini ta'kidlaydi.

Shoiralarimiz ikkinchi jahon urushini o'z she'rlarida tasvirlar ekan, ularda odam va olam munosabatining yaxlit tizimini, hayotiy haqiqatning real tasvirini aks ettirishgan. Masalan, Eshqobil Shukurning "Arosat" deb nomlangan she'rida o'g'ilning bezovta ruhi onasi, rafiqasi va otasining holidan tashvishda ekanligiga ishora qiladi. She'r 1988-yilda bitilgan. U "Urushdan keyingi urush" turkum she'rlar qatorida birinchi o'rinda keltirilgan:

Bulutlar parchasi – ko'k ko'ylak yana,
Omon chiqayotir qirqinchi qishdan.
Holing nima kechdi, holsizim, onam,
Qaytib bormayapman urushdan? [6, 193]

Keltirilgan band she'rning boshlanishi bo'lib, band mazmunidan urushga ketib, vafot etgan, uyiga qaytolmagan yigit nomidan bitilgan. Bu bilan shoir uning oila a'zolariga bo'lgan mehri va ortidan qolgan yaqinlarining unga bo'lgan mehr-u sadoqatini namoyon ettirgan deyish mumkin. Birinchi misrasi metaforik asosda bahor kelganini, urush tugaganiga qirq yil bo'lganini bildiradi. Buni birinchi misradan kuzatish mumkin: "*Bulutlar parchasi – ko'k ko'ylak*". Bu yerda "bulut" va "ko'ylak" detallari, ularga nisban qo'llangan "*parcha*" va "*ko'k*" epiteti she'r mazmuniga mos ravishda lirik qahramon ruhi siniqligi, ojizligiga ishora qiladi. "Ko'k" rang esa aza belgisi bo'lib, u bahorning yashillanishini ham anglatadi. Ya'ni yillar davomida har bahor onaning dardi yangilanishi va ona ana shu dard bilan mardona yashayotganini anglatadi. Banddagi "qirqinchi marta" so'z birikmasi esa shuncha yillar davomida ona farzandini kutib yashaganini ko'rsatadi. Onaning matonati qachonlardir

urushda, qahramonlarcha vafot etgan o'g'lining ruhini ham qayta uyg'otib, uni o'z uyidagilar holatidan xabar olishga undagan, degan g'oyani ham uqish mumkin. Lekin farzand hamon urushda, chunki uning uchun taraqqiyot to'xtagan, yigit o'sha urush vaqtida hamon yuribdi, yigit o'zini vaqt tushoviga tushib qolgandek namoyon etadi. Shuning uchun u onasidan uzr so'ragandek ahvol so'ramoqda. Bu yerda yigitning azobli uzridan ko'ra, she'r tagzamidagi onaning farzand dog'ini ko'tarib yashashdagi azobli hayoti, iztirobi yaqqolroq ko'rinadi. Shoirning boshqalardan farqli tomoni shundaki, lirik qahramoni o'zini kutayotgan onasining metin irodasi, matonatini anglagan holda unga murojaat qilishini bayon qilgan. Boshqa she'rlarda vafot etgan yigit, o'g'il lirik voqelik doirasiga keng ma'noda jonli ijrochi sifatida olib kirlmagan edi. Shoir esa olib kiradi, olib kirganda ham ritorik so'roq, badiiy-estetik yuklamali nutq bilan kiritiladi. Band so'ngidagi so'roq lirik ifodaning o'ziga xosligini ko'rsatadi. Mazkur so'roq ikkinchi, uchinchi bandlar oxirida ham aynan takrorlanadi. Natijada shoir lirik kechinma tabiatidagi fojiaiylikni, lirik obrazning hayotga chanqoq bo'lgani holda erta vafot etganligini kuchaytirishga intilganini ko'ramiz. Aynan shu xususiyat Eshqobil Shukur she'rining eng katta yutuqlaridan biri sanaladi.

Aslida farzand dog'i ota uchun ham, ona uchun ham azobli yo'qotish sanaladi. Ammo nisbatan bardoshli otalar bu holatini ko'p ham oshkor etavermagan. She'rning ikkinchi bandida obraz bevosita otasiga murojaat qiladi:

Kecha ho'rsinadi – kuyib ketar oy,
Ko'ngil siniqlarin yamaysan tushda.
Holing nima kechdi, bir holim, otam,
Qaytib bormayapman urushdan?

Bu yerdagi *“kecha”*, *“oy”*, *“tush”*, *“ko'ngil sinig'i”* kabi detallar ota portertini chizishga xizmat qilganini kuzatamiz. Kechaning obrazga aylanib ho'rsinishi ortida tun va otaning o'zaro o'xshashlik asosdagi metaforik ifodasi berilgan. Ya'ni ota ham kecha kabi ulug' bo'lib, u ham tun, kecha kabi o'z bag'ridagi voqea, hodisalarni yashiradi. Lekin yo'qitish dardi, alami, iztiroblarini o'ylaydi, anglaydi. Unga hamdard bo'ladi, birga kuyadi. Aslida ham oy to'lishganda uning rangi zarg'aldoq rangiga tortadi, bu esa dard rangi sanaladi. Lekin xotira, o'g'lining yurishini tushda ko'rishi uning singan ko'ngilga taskin, tasalli beradi. O'g'il otasining ana shunday holatini anglamoqda va otasidan hol so'rayapti. Chunki otasining zimmasida o'z dardi bilan yashashdan tashqari, kampiri va kelinga taskin berish dardiga tegib ketmaslik, ularni srash vazifasi ham turibdi.

She'rning uchinchi bandida lirik qahramon xotini obrazi berilgan. Eri kelmasligini bilsa-da, uni sadoqat va umid bilan kutayotgan, uzoq yillar ayriliq azobini bo'yniga olib yashayotgan irodali kelin obrazi milliy qadriyat doyrasida tasvirlangan:

Iffat zarpardasi – Sharqning ro'moli
Suyuq gavharlarga to'lar to'yqusdan.
Holing nima kechdi, jufti halolim,
Qaytib bormayapman urushdan?

Mazkur band tahlilidan oldin bu yerdagi ba'zi detallarning izohiga to'xtalish lozim bo'ladi. *“Iffat zarpardasi”*, *“suyuq gavhar”* so'z birikmalari orqali ayolning fazilatlarini sanalgan. Iffat ayolning axloqini bildirsa, uning zarpardasi qalbdagi bo'lishini alohida ta'kidlash shart bo'ladi. *“Suyuq gavhar”* bu muhabbatning qalbdagi harakati, shavq deb baholanadi. Shunda urushdan qaytmagan yorini kutib, o'ksik muhabbatini qalb tubiga yashirishga o'zida qudrat topa bilgan jasoratli ayol tasviri namoyon bo'ladi. Uning tirikligini, hayotda u ham qachondir baxtli bo'lgani va yana o'sha lahzalarni eslaganda qalbidan tuyg'ulari jo'sh urganda jismiga iffat libosini kiyib, o'zi bilan o'zi kurashib yashayotgan ayolning ma'naviy jasoratini lirik qahramon to'g'ri anglamoqda.

Shu yerga kelganda she'rning mazmuniy kompozitsiyasidagi tezis-tamoyili o'rniga xulosa chiqadi. Lirik qahramon endi bu azob, umuminsoniy ekanligiga ishora qiladi va Vatan uchun kurashib, qon kechgan va dunyo tarixida iz qoldirgan qahramonlarni sanaydi:

Muhammad payg'ambar g'azotdan qaytdi,
Suvorov qaytdi qaytganday ishdan.
Che Gevara qaytdi, Robin Gud qaytdi,
Eshqobil qaytmadi urushdan.

Parchada lirik qahramon tarixiy shaxslar bilan bir qatorda sanalgan. Mazkur bandning oxirida avvalgilardagi kabi ritorik so'roq qo'llanmagan. Lekin she'rda to'rt marta sanalgan *“qaytdi”* so'zi she'r oxiridagi *“qaytmadi”* bilan o'zaro semantik ziddiyat hosil qilib, mazmun teranlashishi, muammoning keskinligini oshirgan. Muallif Muhammad (s.a.v), Aleksandr Suvorov (rus generallisimusi, rus-turk

TARIX

urushida qator yutuqlarni qo'lga kiritgan), Che Gevara (Lotin amerikasidagi Kolumbiya, Boliviya, Venesuela mamlakatlarining yagona milliy qahramoni, xalq ozodligi uchun ispan mustamlakachilariga qarshi kurashgan), Robin Gud (ingliz xalqini adolatsiz qiroлга qarshi kurashga olib chiqqan milliy qahramon) qaytganligini ta'kidlar ekan, "*Eshqobil qaytmadi urushdan*" degan jumla bilan she'rni yakunlaydi. Uni ikki xil talqin qilish mumkin: 1) chunki lirik qahramon o'zi vafot etganini anglaydi va qaytmasligi aniq, u bunga ko'nikkan, endi "Sizlar ham shu qismatga ko'ning", degan ma'no kelib chiqadi; 2) bu yerdagi Eshqobil ismi bevosita shoirning ismi bo'lib, uning hayot kurashi hali davom etmoqda, u hali olamni yovuzliklardan tozalay olganicha yo'q, shuning uchun hali qaytmaydi, degan ma'no ham bor. Shu talqin bilan she'r va unda ko'tarilgan ijtimoiy muammo – sadoqat, sevgi, oila muqaddasligi, inson xotirasi, ajdodlar jasorati kabi ma'naviy qadriyatlarga amal qilishlik shartligi ta'kidlangan. Natijada she'rda konfliktlilik ham yuzaga chiqqan. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, lirik qahramon va u tasvirlagan kishilar timsolida jamiyatda oila, sevgiga sadoqat, ota-onaga muhabbat, ajdodlarning avlodlar uchun kurashib qurbon bo'lgani kabi fazilatlarga bepisandlik bilan qarovchi odamlarga qarshi kurashuvchilar turibdi. Aynan ana shu xususiyatlar she'rlarning, umuman, har ikki shoir ijodidagi urush, oila, ayolga e'tibor, sadoqat kabi masalalarda o'zaro yaqinlik namoyon etadi. Lekin ularni har bir shoir o'z "tili", o'ziga xos tasviriy usuli bilan o'quvchiga taqdim etadi.

"Voqelikni barcha tafsilotlari hamda mayda ikir-chikirlari bilan tasvirlay bilish,... ham obraz, ham manzara, ham mavzu, ham g'oyaviy niyatni izchil yoritish shoir she'riyatining yana bir muhim xususiyatlaridandir"[2, 138]. Shu ma'noda Xurshid Davron ham "Beva hovlisiga tun oldin kirar" nomli she'rda urushda yoridan ayrilgan, lekin o'sha muhabbatiga sadoqat ila sabr qilib yashayotgan irodali ayol timsolini badiiy jihatdan mukammal tasvirlaydi:

Beva hovlisiga tun oldin kirar,
Quyuglashib borar dilda xotira.
Devorda suratda: bir yigit kular,
Yonida jilmayar bir qiz bokira. [8]

Mazkur parcha she'rning birinchi bandi bo'lib, uning umumiy kompozitsiyasida tezis vazifasida kelgan. Unda peyzaj, xotira, surat detallari orqali lirik qahramonning ruhiyatida, botiniy olamidagi sevgi va unga bo'lgan sadoqat yashayotganligiga ishora qiladi. Shu o'rinda aytish kerakki, Eshqobil Shukur she'rda tush detalidan foydalanilgan edi. Bu yerda ham shoir o'shanga o'xshash surat va tush detallaridan fodalanadi va holatni keltiradi. Demak, ikki she'r o'rtasida o'zaro yaqinlik mavjud. Xurshid Davron she'ri hajman kichik va unda faqat beva ayol tasviri beriladi, xolos. Eshqobil Shukur she'rda yigitning onasi, otasi ham tilga olingan edi. Lekin har uchalasida ham oila muqaddasligi haqidagi g'oya muhabbat, sadoqat bilan birga keladi.

She'rning keyingi bandida endi ayolning ruhiy portreti beriladi:
Beva eng chiroylik ko'ylagin kiyib,
Ochiq derazadan termular g'amgin.
Xona burchagida g'amdan entikib,
Eski plastinka g'ijillar tag'in.

Bu yerdagi ko'ylak, deraza, plastinka detallari she'r mazmunidagi asosiy tasvirni ifodalovchi vazifasida kelgan. Xususan, ko'ylakka "*chiroyli*" epiteti berilishi bilan bevaning ruhiyatidagi o'zgarishlarga ishora qilinadi. Beva ayol ham chiroyli ko'ylagini kiyib, sevgan kishini kutgandek yasanishi va bir paytlardagi kabi plastinka orqali musiqa tinglashi mumkinligi ta'kidlanadi. Dahshatli hodisa shundaki, u yori vafot etganini biladi va ayol o'zida shunday kuch topa oladiki, o'zini eri hali zamon keladigandek tutadi. Bunday jasorat, sadoqat va iroda namyon etgan ayol inson qudratining, sadoqatining timsoli bo'la oladi.

Ammo u kelmasligini biladi. Shuning uchun derazadan boqadi. Deraza bu erda birinchi ma'noda, xonaning bir qismi bo'lsa, lirik qahramon harakatlari mazmunidan kelib chiqib ikkinchi ma'no hosil qiladi: bu – yopiq makonni tashqi olam bilan bog'lovchi vosita. Uchinchi jihatdan olganda esa u beva ayolning ko'nglini olib ketgan yigit, urushda vafot etgan erining xabarini olib keluvchi, xayollariga qanot beruvchi, umidini saqlab turuvchi detal sanaladi. Shuning uchun u derazaga tikilib, o'zini eri hali zamon kelib qolishi mumkindek tutadi. Ammo g'amgin boqishida qalbidagi armon, alam zohir bo'ladi. Shuning uchun u oshiq-ma'shuqlar yoqtirgan qo'shiq tugab, g'ijirayotgan plastinkani eshitmaydi.

Oqshomlari qiyin bo'lar bevaga:

Xotiralar dilga kirar quralash.
Og'ir bo'lsa hamki, tasvir bo'lsa ham
Suratga jilmayar ko'zyosh aralash.

Mazkur parcha she'rning oxirgi bandi bo'lib, 1975-yilda yozilgani ko'rsatilgan. Unda beva ayolning hayotga tashna qalbi, sevgiga, mehrga muxtoj jismi sadoqatini namoyon etishi uchun unga qarshi isyon qilishi va katta iroda, iztirobli kechinmalar qurshovida suratdan tasalli izlagani bayon etilgan.

XULOSA

Umuman olganda, har ikki shoir ham urush va uning salbiy oqibatlari xalqimiz hayotiga katta ta'sir etganini ishonarli tasvirlaydi. Bunda yoridan ayrilgan ayol tasviri, oila, sevgi, sadoqat qadriyatlari ulug'ligi haqidagi g'oyalar ilgari surilgan. Ana shu g'oyalar lirik qahramon obrazi orqali ifodalangan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гегель. Эстетика в 4-х томах. Том 2. –Москва: Мысль, 1970. – 629 с.
2. Сабирдинов А. Ойбекнинг шеърий маҳорати. – Тошкент: Фан, 2005. – 220 б.
3. Тамарченко Н.Д. Введение в общую теорию жанров / Теория литературных жанров: учеб. пособие для студ. учреждений высш. проф. образования / М.Н.Дарвин, Д. М. Магомедова, Н.Д.Тамарченко, В. И.Тюпа. — М.: Издательский центр «Академия», 2011. — 256 с.
4. Умиров Х. Адабиёт назарияси (дарслик). – Тошкент: Шарқ, 2002. – 256 б.
5. Фитрат, Абдрауф. Танланган асарлар: IV jild. Darslik va o'quv qo'llanmalar. Ilmiy maqolalar va tadqiqotlar. Nashrga tayyorovchi va izohlar muallifi H.Boltaboyev. – Toshkent: Ma'naviyat, 2006. – 336 б.
6. Шукур, Эшқобил, Ҳамал айвони. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 232 б.
7. Эпштейн М.Н. От знания – к творчеству. Как гуманитарные науки могут изменять мир. Москва, Санкт-Петербург: Центр гуманитарных инициатив, 2016. – 294 с.
8. [www://Kh-davron.uz](http://Kh-davron.uz).